

DAVLATSHOH SAMARQANDIYNING "TAZKIRAT USH-SHUARO"
ASARI HAMDA ZAYNIDDIN VOSIFIYNING "BADOYE' UL-VAQOYE"
ASARLARIDA NAVOIY SHAXSIYATIGA DOIR MA'LUMOTLAR
QIYOSI

Babakulova Nargiza Kurashbayevna

Namangan davlat universitetining 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6539654>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Davlatshoh Samarqandiy, Zayniddin Vosifiyning asarlari qiyosida Navoiy hayotiga doir ma'lumotlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: zamondosh, xotira, memuar, hazrat, buyuk inson, daho, tasavvur, xalq og'zaki ijodi.

"ТАЗКИРАТ УШ-ШУАРО" ДАВЛАТШОХА САМАРКАНДИЙСКОГО
И "БАДОЕ УЛ-ВАКОЕ" ЗАЙНИДДИНА ВАСИФИ О ЛИЧНОСТИ
НАВОИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются сведения о жизни Навои в сравнении с произведениями Давлатшаха Самаркандийского, Зайниддина Васифи.

Ключевые слова: современник, память, воспоминания, святой, великий человек, гений, воображение, фольклор.

DAVLATSHOH SAMARKANDI'S "TAZKIRAT USH-SHUARO" AND
ZAYNIDDIN VASIFI'S "BADOYE UL-VAKOYE" INFORMATION
ABOUT NAVOI'S PERSONALITY

Abstract. This article deals with information about the life of Navoi in comparison with the works of Davlatshah Samarkandiy, Zayniddin Wasifi.

Keywords: contemporary, memory, memoir, saint, great man, genius, imagination, folklore.

Alisher Navoiy ijodi va shaxsiga hamma zamonlarda qiziqish katta bo'lgan. Hatto u kishi haqida ko'plab afsonasifat hikoyalar ham to'qilgan. Ulug' mutafakkirning shaxsi, tutumi, fe'l-atvori haqida yaqqolroq tasavvur hosil qilish uchun avvalo hazratning asarlarini, u zotga zamondosh bo'lgan adiblarning xotiralarini sinchiklab o'qish zarur. Quyida buyuk bobokalonimiz bilan bir davrda yashagan mualliflarning asarlaridan parchalar keltiramiz. Ular Alisher Navoiyning betakror va beqiyos fazilatlar va shaxsiyati haqida so'zlaydi. Quyida keltiradigan ilk manba Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asaridir. Ushbu asar xotimasining Alisher Navoiyga bag'ishlangan qismi Navoiyni ulug'lash bilan boshlangan. Ya'ni uning sharofatli nomi kitob muqaddimasining ziynati, saodat devoniga asosiy mazmun ekanligi ta'kidlangan. Navoiyning har tomonlama yetuk inson bo'lganligini shoirning birgin u haqida "Oftobni ta'riflash aql xiraligidan nishona" degan tarifidan anglasak, bo'ladi. Otasi haqida alohida to'xtalib, ul zot Sulton Abulqosim Boburning yaqin kishisi ekanligi, saroy ayonlari o'rtasida o'z o'rniga ega ekanligi, shuningdek, farzand tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratganligi sababli Alisherdek nodir inson dunyoga kelib, kamol topgani haqida so'z yuritiladi. Sulton Abulqosimning iste'dodni parvarish qiluvchi himoyalovchi inso ekanligi, Sulton Husayn Boyqaro podsholigi davrida xizmatlari e'tiborga olinib, ulug' amir din-u davlat homiysi bo'lganligi, "Xamsa"ning turkiycha javobi, asardagi "Layli va Majnun" dostoniga alohida to'xtaladi. Asarda hazratning bir qancha xislatlari xususan, saxovatpeshaligi haqida gapiriladi. Shuning bilan bir qatorda obodonlashtirish ishlariga ham bosh bo'lib, masjid, madrasa, rabotlar qurilganligi alohida ta'kidlanadi. Uning savobga ishora qiluvchi so'zlari mana shu ishlari orqali o'z isbotini topdi. Agarda Navoiyning qilgan ishlarini ushbu kitobda keltiradigan bo'lsak cho'zilib ketishi, shuning uchun Hirot atrofida amalga oshirgan ishlari xususida so'z yuritilishi haqida aytib o'tilgan, ya'ni bu kitobda keltirilgan savob ishlar Navoiy amalga oshirgan ishlarning bir qismigina xolos.

Zayniddin Vosifiy qalamiga mansub "Badoye' ul-vaqoye" ("Go'zal voqealar") xotiralar to'plamining to'rt bobi (14-17) Alisher Navoiy shaxsiyatiga

bag'ishlangan. Unda hazratning fe'li-sajiyasi, zamondoshlari bilan ijodiy muloqotlari, Navoiy hayoti bilan bog'liq turli qiziqarli voqealar haqida so'z boradi. Quyida biz bu ikki ajoyib asarni qiyosiy tahlil qilamiz va o'rganamiz:

"Tazkirat ush-shuaro"

"Badoye' ul-vaqoye"

Samarqandiyning ushbu asarida

Navoiyning otasi haqida to'liqroq ma'lumotni uchratishimiz mumkin

Vosifiyning asari esa badiiyoq usulda yozilgan

Ushbu asar xotimasining Alisher

Navoiyga bag'ishlangan qismi

Navoiyni ulug'lash bilan boshlangan.

Ya'ni uning sharofatli nomi kitob

muqaddimasining ziynati, saodat

devoniga asosiy mazmun ekanligi

ta'kidlangan. Navoiyning har

tomonlarga yetuk inson bo'lganligini

Samarqandiyning "Oftobni ta'riflash

aql xiraligidan nishona" degan

ta'rifidan ham anglab yetsak bo'ladi.

Zayniddin Vosifiy qayd etadiki:

"Oliyhazrat amir Alisher musiqa ilmida

ham shu qadar mahorat hosil qilgan

edilarki, agar muallimi soniy Abu Nasr

Forobiy hayot bo'lganlarida unga

shogirdlik sirg'asini qulog'iga taqib

olardi"

Ushbu asarda Navoiyning ulug'

fazilatlari alohida keltirib o'tilgan.

Navoiyning otasiga alohida ta'rif

berib, ul zot Sulton Abulqosim

Boburning yaqin kishisi ekanligi,

saroy ayonlari o'rtasida o'z o'rniga

Zayniddin Vosifiy o'zining "Badoye'

ul-vaqoye'" asarida quyidagilarni

keltiradi: "Navoiy hayot vaqtida uning:

Din ofati ul mug'bachai mohiliqodur,

egaligi, shuningdek, farzand *mayxorau bebok*, tarbiyasiga ham befarq bo'lmagani va shu sababli Alisherdek nodir inson dunyoga kelib, kamol topgani haqida *Kim ishqidin oning vatanim deydi* so'z yuritiladi. Sulton Abulqosimning *fanodir, sarmastu yaqom chok*, – iste'dodni parvarish qiluvchi himoyalovchi insonligi, Sulton Husayn podsholigi davrida ulug' amir din-u davlat homiysi bo'lganligi, Marvarid degan bastakor bir kuy "Xamsa"ning turkiycha javobi, yaratgan. U vaqtlarda Hirotda bu kuy asardagi "Layli va Majnun" dostoniga chalinmaydigan uy yo'q edi. Bir bazmda alohida to'xtaladi. Shuning bilan hofizlar shu mustazodni birgalikda Alisher Navoiyning aytayotganlarida majlis ahli o'z saxovatpeshaligi haqida ham yoqalarini yirtganlar", ya'ni, ta'siri shu gapiriladi. Navoiy boshchiligida qadar kuchli bo'lgan. Navoiy butun mamlakatda obodonchilik g'azallariga kuy bastalagan ilk ishlari amalga oshirilganligi, bastakorlar Hoji Yusuf Burhon va Hoji madrasalar, masjidlar, rabotlar Abdulloh Marvarid bo'lgan bo'lsalar, bu qurilganligi alohida ulug'lanadi. bastakorlar silsilasi asrlar osha, bizning Uning savobga ishora qiluvchi kungacha davom qilmoqda. Necha yuz so'zlari mana shu ishlari orqali o'z yillar o'tsa ham Navoiy so'zlari bilan isbotini topdi deyiladi. Agarda aytiladigan ashulalar zamonaviy Navoiyning butun qilgan ishlarini tinglovchilarga yanada kuchli ta'sir etib ushbu kitobda keltirib o'tiladigan kelmoqda. bo'lsa cho'zilib ketishi, shuning uchun Xirot atrofida amalga oshirgan ishlari xususida so'z yuritilishi haqida ta'kidlangan, ya'ni bu kitobda

keltirilgan savob ishlar Navoiy amalga oshirgan yaxshi amallarning bir qismigina xolos.

Alisher Navoiy haqida nima uchun bunday xotiralar yozilgan, mazkur memuarlarning ilm-fandagi hamda o'quvchi hayotida tutgan o'rni va ahamiyati qanday? Bunday buyuk insonlarni unutishga haqqimiz yo'q albatta, zero har qaysi davrning o'z dahosi bo'lgani/ek, XV asrning dahosi, buyuk insoni hisoblanadi Navoiy. Uning barcha qilgan ishlarini bilish kelajak avlodning burchi. Buni his qilgan holda Navoiyning shogirdlari, tarixchilar uni ko'rgan, uni suhbatini olgan insonlar u buyuk siymo haqida shunday xotiralarni yozib qoldirishgan. Bunday memuar asarlarning hozirgi ilm-fandagi ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Chunki biz mana shunday asosli dalillar orqali Navoiyni faqat shoir sifatida emas, balki uning shaxsiyati, insoniy qiyofasini o'rganishga sazovor bo'lamiz.

Xullas, qadimgi yozma manbalar va xalq og'zaki ijodiga mansub asarlar Navoiyning do'stlar, zamondosh va safdoshlar davrasida ham favqulodda oqil, dono, ziyrak va hozirjavobligidan dalolat beradi. Eng muhimi,aytarli hamma o'rinda Navoiy ulug' shoir, tadbirkor, davlat arbobi, ko'p narsani oldindan ko'ra oluvchi mutafakkir qiyofasida gavdalanadi.

Adabiyotlar:

1. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. "Navoiyshunoslik". (1-kitob) Darslik. T; 2019.
2. Yusuf Chetindog'. Alisher Navoiy. Toshkent "Muharrir" nashriyoti. 2013.
3. Ziyouz.com kutubxonasi